

TUPROQSHUNOSLIK TERMINOLOGIYASIDA TURKIY SO‘ZLAR

Hamidova Mohlarbegim Hamid qizi,*Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**Filologiya kafedrasida o‘qituvchisi, tadqiqotchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tili tuproqshunoslik terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida tub turkiy qatlamning tutgan o‘rni tadqiq etilgan. Bugungi kunda sohaviy leksikani milliy lashtirish va tartibga solish jarayonida tarixiy va xalqchil terminlarning o‘rni beqiyosdir. Maqolada tuproq tarkibi, turlari va unumdorligini ifodalovchi qadimiy turkiy terminlar o‘rganilib, ularning lisoniy tabiati, shakllanish tarixi va semantik (ma’noviy) xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: tuproqshunoslik, terminologiya, turkiy qatlam, sohaviy leksika, xalq terminlari, etimologiya.

Аннотация. В данной работе исследуется роль исконно тюркского пласта в формировании и развитии терминологии почвоведения в узбекском языке. В современных процессах национализации и упорядочения отраслевой лексики значение исторических и народных терминов недооценимо. В статье изучены древние тюркские термины, выражающие состав, типы и плодородие почв, а также раскрыты их лингвистическая природа, история формирования и семантические (смысловые) особенности.

Ключевые слова: почвоведение, терминология, тюркский пласт, отраслевая лексика, народные термины, этимология.

Abstract. This paper investigates the role of the native Turkic stratum in the formation and development of soil science terminology in the Uzbek language. In the modern processes of nationalizing and regulating specialized vocabulary, the significance of historical and vernacular terms is invaluable. The article examines ancient Turkic terms expressing soil composition, types, and fertility, and reveals their linguistic nature, history of formation, and semantic features.

Keywords: soil science, terminology, Turkic stratum, specialized vocabulary, vernacular terms, etymology.

Kirish. Bugungi kunda o‘zbek tili davlat tili sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan, ilm-fan va texnikada keng joriy etilayotgan bir davrda milliy terminologiyaning tarixiy ildizlarini tadqiq etish muhim lisoniy va ijtimoiy-madaniy zaruriyat hisoblanadi. Tabiatshunoslik va qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan tuproqshunoslik sohasi o‘zining ko‘p asrlik shakllanish tarixiga ega bo‘lib, uning terminologik tizimida xalqning turmush tarzi, joyning geografik va tabiiy xususiyatlari hamda milliy dunyoqarashi chuqur muhrlangan. Biroq, uzoq yillar davomida sohaviy leksikaning shakllanishida o‘zga tillarning, xususan, rus, yevropa hamda arab-fors qatlamlarining ta’siri ustun darajada o‘rganilib, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari hamda tub turkiy qatlam salmog‘i yetarlicha tadqiq etilmadi. Ushbu mavzuning dolzarbligi aynan tuproq tarkibi, uning xususiyatlari, unumdorlik darajalari hamda tuproq turlarini ifodalovchi qadimiy va xalqchil turkiy terminlarning lisoniy tabiatini aniqlash, ularning fanga kirib kelish va ilmiylashtirish qonuniyatlarini tizimli tahlil qilish ehtiyoji bilan belgilanadi. Hozirgi davrda sohaviy terminologiyani milliy lashtirish, sun‘iy va kalka usulidagi asossiz o‘zlashmalardan tozalash hamda fanning tushunchalar apparatini tartibga solishda xalq tilidagi tayyor, asrlar sinovidan o‘tgan turkiy so‘zlardan unumli foydalanish

lisoniy siyosatning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu sababli, tuproqshunoslik terminologiyasidagi turkiy qatlamni leksik-semantik, etimologik va tarkibiy jihatdan ilmiy tadqiq etish nafaqat o'zbek tili leksikologiyasi va terminshunosligini yangi nazariy xulosalar bilan boyitadi, balki milliy ilmiy-izohli lug'atlarni mukammallashtirish hamda sohaviy darsliklarning o'zbekona ilmiy tilini shakllantirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida bir qator tadqiqotchilar jumladan, turkiy tillarning o'zida sohaviy leksika tahlili (O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjon) misolida milliy tillardagi qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va tuproqshunoslik terminlarining tizimli shakllanishi o'rganilgan. Masalan, ozarbayjonlik olimlar T.I.Gadjiyev [1.156] va E.V.Seidov [2.24] tuproq turlarini ifodalovchi qadimiy qatlamni tadqiq etgan bo'lsa, qozog'istonlik tilshunoslar A.T.Kajibekov[3.182] va boshqalar ko'chmanchi va o'troq turkiy qabilalarning yer-suv, tuproq relyefiga bergan nomlarini etimologik jihatdan tahlil qilganlar. Rus tuproqshunoslik maktabining asoschisi V.V.Dokuchayev[4.128] ham o'z ilmiy ishlarida xalq tilidagi turkiy terminlarni (чернозем – qora tuproq, солончак – sho'rxok, позол kabi tushunchalar bilan birga ko'plab turkiy elementlarni) fanga olib kirgan. Rossiyalik yirik turkshunos olimlar N.A.Baskakov,[5.214] E.M.Murzayev[6.653] rus geografik va tuproqshunoslik terminologiyasidagi turkiy qatlamning lisoniy tabiatini fundamental tarzda ochib berganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy va etimologik metodlardan kompleks foydalanildi. Tuproqshunoslik terminologiyasidagi turkiy qatlamni aniqlash va tahlil qilishda leksik-semantik tahlil usuli asosiy o'rin tutdi. Shuningdek, terminlarning tarixiy rivojlanishini o'rganishda diaxron yondashuv, ularning ma'naviy xususiyatlarini ochishda esa semantik tahlil usuli qo'llanildi.

Qiyosiy metod yordamida o'zbek tilidagi tuproqshunoslik terminlari boshqa turkiy tillar hamda rus va yevropa ilmiy terminologiyasi bilan solishtirildi. Etimologik tahlil orqali esa so'zlarning kelib chiqishi va qadimiy turkiy ildizlari aniqlashtirildi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalar, lug'atlar va sohaviy adabiyotlarni tahlil qilish asosida umumlashtirish va tizimlashtirish usullaridan ham foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. O'zbek tili tuproqshunoslik terminologiyasining leksik-semantik tizimida tub turkiy qatlam fanning poydevori hisoblanadi. Asrlar davomida o'troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan turkiy qabilalar tuproqning tarkibi, unumdorligi, rangi va relyef xususiyatlarini aniq aks ettiruvchi xalqchil terminlar tizimini yaratganlar. Ushbu sohaviy so'zlar keyinchalik zamonaviy tuproqshunoslik fanining fundamental tushunchalari qatoridan joy oldi. "Tuproq" termini mazkur termin tizimning eng bosh va markaziy tushunchasi (yadro termini) bo'lib, qadimgi turkiy tillardagi yerning unumdor qatlami, chang yoki mayda zarrachani ifodalovchi "topraq / tofraq" so'zidan kelib chiqqan. Maxmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida ham ushbu so'z yer moddasi ma'nosida keladi. Etimologik jihatdan ushbu so'z o'g'iz va

qarluq guruhiga mansub turkiy tillarda deyarli bir xil fonetik ko‘rinishda saqlangan. Bugungi kunda u fanda yer qobig‘ining mineral moddalardan iborat unumdor yuza qatlami ma‘nosida universal ilmiy tushuncha sifatida qo‘llanadi.

"*Taqir*" (*Taqir tuproqlar*) termini xalqaro tuproqshunoslik terminologiyasiga (jumladan, rus va ingliz tillariga ham) aynan turkiy tillardan o‘zlashgan yirik terminlardan biridir. Qadimgi turkiy tilda "*taqir*" so‘zi "*silliq*", "*taqir-tuqir*", "o‘simlik o‘smaydigan quruq, qattiq yer" semalarini ifodalagan. Semantik tabiati jihatidan bu termin tuproqning morfologik (tashqi) ko‘rinishiga asoslangan nomlash (nominatsiya) hisoblanadi. Bugungi kunda fanda cho‘l zonalarida va gilli cho‘kmalarda hosil bo‘ladigan, yuzasi quriganida ko‘p burchakli yoriqlarga bo‘linib ketadigan qattiq tuproq tipini ifodalaydi.

"Tuproqtom" Qadimgi turkiy tillarda (VI–XI asrlar yozma yodgorliklarida) "topraq / tofraq" ko‘rinishida kelgan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida uni yerning maydalangan, yumshoq qismi va chang ma‘nosida qo‘llagan. So‘z o‘zagida "*to‘plamoq*", "*yerda to‘planib turuvchi modda*" ma‘nosi yotishi haqida ham ilmiy qarashlar bor. Yer qobig‘ining ustki yumshoq, unumdor qatlami (tuproqshunoslikning obyekt). "Tuproqtom" – sof turkiy kombinatsiya bo‘lib, uying tomi mahalliy tuproq xomashyosidan yopilganini ifodalaydi.

"*Tepalik*" Asosi qadimgi turkiy tildagi "*tepe / töpe*" (boshning tepasi, eng yuqori nuqta, balandlik) so‘zidir. Unga xoslik va o‘rin-joy ma‘nosini beruvchi "-lik" qo‘shimchasi qo‘shilgan. Fanda relyefning nisbiy balandligi uncha katta bo‘lmagan (odatda 200 metrgacha), cho‘qqisi yumaloq shakldagi tabiiy ko‘tarilmasini ifodalaydi. Tuproq xaritalarini tuzishda oborot qiyaliklari va tepaliklar tuproq qoplaminin yuvilish (eroziya) darajasini belgilashda muhim termin hisoblanadi.

"*Tog*" termini Orxun-Enasoy bitiktoshlaridan boshlab deyarli barcha qadimiy yodgorliklarda "*tağ / taq*" shaklida uchraydi. Turkiy tillarning barcha guruhlarida (o‘g‘iz, qipchoq, qarluq) fonetik jihatdan juda kam o‘zgarishga uchrab, o‘z barqarorligini saqlab qolgan sof milliy so‘zdir. Tuproqshunoslikda tog‘li hududlar o‘zining vertikal zonallik qonuniyatiga ko‘ra alohida o‘rganiladi (masalan: *tog‘-o‘rmon*, *tog‘-bo‘z tuproqlari*). Matnda kelgan "Tog‘ jinslari" birikmasi ham tuproq paydo qiluvchi ona jinslarni anglatuvchi sohaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi.

"*Toshloq*" va "*toshzor*" terminlarining asosi qadimgi turkiy tillardagi "taš" (qattiq jism, tosh) so‘zidir. *Tosh + loq* (ko‘plik va seroblikni ifodalovchi turkiy qo‘shimcha). Garchi -zor qo‘shimchasi fors-tojik tilidan o‘tgan bo‘lsa-da, so‘zning o‘zagi (tosh) turkiydir. Bu birlik tilshunoslikda gibrid so‘z hisoblanadi. Tuproqshunoslikda va agronomiyada ekin ekish qiyin bo‘lgan, tarkibida shag‘al va yirik tosh parchalari yuqori foizni tashkil etadigan yerlarni tasniflashda qo‘llanadi ("*Toshli tuproq*", "*Zamini toshloq ekan*").

"*Sho‘r*" so‘zi qadimgi turkiy tillardan kirib kelgan bo‘lib, "tuzli", "tarkibida tuz mavjud" degan ma‘noni bildiradi. Bu birlik o‘zbek tilida sho‘rlanmoq, sho‘rxok, sho‘rtob

kabi hosila soʻzlar yasashda asos boʻlgan. Turkiy tillarning koʻpchiligida shu shaklda uchraydi.

Sohaning eng asosiy, bosh tushunchasi boʻlgan "tuproq" terminining oʻzi tub turkiy asosga ega. Bu esa oʻzbek tuproqshunoslik fani terminologik tizimining oʻzagini aynan milliy qatlam tashkil etishidan dalolat beradi. Barcha boshqa sohaviy birikmalar (masalan: *tuproq unumdorligi*, *tuproq eroziyasi*, *tuproq tipi*) aynan shu turkiy yadro atrofida shakllanadi. Tuproqshunoslik terminologiyasidagi turkiy soʻzlar shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki bugungi zamonaviy fanning tushunchalar apparatini harakatga keltiruvchi, uning milliy qiyofasini belgilovchi garchand qadimiy boʻlsa-da, funksional jihatdan oʻta faol lisoniy qatlamdir. Ularni oʻrganish darsliklar va lugʻatlarning tilini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Tuproqshunoslik terminologiyasida turkiy qatlamning oʻrni va ularning ilmiy-lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish oʻzbek tilshunosligi hamda tabiatshunoslik fanlari uchun gʻoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzuda olib borilgan tahlillar shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tili tuproqshunoslik terminologiyasining shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan boʻlib, uning tub asosini qadimiy turkiy soʻzlar tashkil etadi. Ajdodlarimizning asrlar davomida dehqonchilik va chorvachilik bilan uzviy bogʻliq holda yashagani, yer va suv resurslaridan unumli foydalanish borasidagi amaliy tajribalari tilimizda tuproqning tabiati, tarkibi, unumdorligi hamda rang-tusini ifodalovchi mukammal xalq terminlari tizimi yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Ilmiy nuqtayi nazardan qaralganda, tuproqshunoslikka oid turkiy terminlar asosan nominal (ot) xarakterga ega boʻlib, ular tuproqning fizik-kimyoviy xossalarini nihoyatda aniq va loʻnda ifodalay olishi bilan ajralib turadi. Xususan, tilimizdagi tuproq, yer, qum, loyxon, shoʻrxok, boʻz, shagʻal, unumdor, soz (gilli, pishiq tuproq), chaqir kabi oʻnlab terminlarning ildizi aynan turkiy asosga borib taqaladi va ularning aksariyati bugungi zamonaviy agronomik hamda geografik fanlar tilida ham oʻzining faol funkcionalligini toʻlaqonli saqlab qolgan. Eʼtiborli jihati shundaki, bu soʻzlar shunchaki oddiy leksemalar boʻlmay, balki oʻzida maʼlum bir ilmiy konsepsiya va mantiqiy tasnifni namoyon etadi; masalan, tuproqning rangiga qarab ajratilgan boʻz tuproq yoki tarkibiga koʻra aytilgan qumloq, gilli kabi terminlar xalqning tabiiy-ilmiy tafakkuri qay darajada yuksak boʻlganidan dalolat beradi. Shuningdek, turkiy tillarga xos boʻlgan soʻz yasalishi qonuniyatlari, xususan, affiksatsiya va kompozitsiya (soʻz qoʻshilishi) usullari tufayli tuproqshunoslik terminologiyasi yangi tushunchalar hisobiga muntazam boyib borgan. Tuproqshunoslik terminologiyasidagi turkiy soʻzlar oʻzbek ilmiy tilining boy ichki imkoniyatlarini, milliy tabiatshunoslik maktabining tarixiy ildizlarini va tilimizning terminologik mustaqilligini koʻrsatuvchi muhim lisoniy manba hisoblanadi, ularni chuqur oʻrganish va zamonaviy darsliklarda tizimlashtirish bugungi kunda ham dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гаджиев, Т. И. Земледельческая лексика в тюркских языках огузской группы / Т. И. Гаджиев. – Баку : Элм, 1979. – 156 с.
2. Сеидов, Э. В. Тюркские элементы в агрономической и почвоведческой терминологии азербайджанского языка : автореф. дис. ... канд. филол. наук / Э. В. Сеидов. – Баку : АГУ, 1989. – 24 с.
3. Кажибек, А. Т. Происхождение и структура древнетюркских терминов скотоводства и земледелия / А. Т. Кажибек ; Академия наук Казахской ССР, Институт языкознания. – Алма-Ата : Наука, 1986. – 182 с.
4. Докучаев, В. В. Русский чернозем : Популярный очерк [Включает народные и тюркские термины почв] / В. В. Докучаев. – Санкт-Петербург : Типография Деклерона и Евдокимова, 1885. – 128 с.
5. Баскаков, Н. А. Тюркская лексика в татарских и русских географических и почвенных названиях / Н. А. Баскаков. – Москва : Наука, 1984. – 214 с.
6. Мурзаев, Э. М. Словарь народных географических терминов [Включает тюркские почвенные и ландшафтные номинации] / Э. М. Мурзаев. – Москва : Мысль, 1984. – 653 с.

